



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI
MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI**

Noila Sayfullayeva, Dilnoza Rustamova

TDIU MMT-95-guruh talabalari

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti holatining mamlakat iqtisodiyotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, davlat byudjetining holati O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ayrim muammolarni hal qilishdagi o‘rni yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** davlat byudjeti profitsiti, davlat byudjeti taqchilligi, davlat byudjetining balansiligi, soliqlar, konsolidatsiyalashgan byudjet.*

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida byudjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo‘jalik subyektlarining va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko‘payishi bilan ortib bormoqda. Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda mamlakatlar iqtisodiyotida davlat byudjetining holati muhim ahamiyat kasb etadi¹

Davlat byudjetining holati 3 xil bo‘lib ular quyidagilar:

- ✓ Davlat byudjeti profitsiti;
- ✓ Davlat byudjeti taqchilligi;
- ✓ Davlat byudjetining balans holati.

Ushbu holatlarga byudjet kodeksida quyidagicha ta’rif berilgan:

Davlat byudjeti profitsiti-muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi. Davlat byudjeti taqchilligi-muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti

¹ Davlat byudjeti: O‘quv qo‘llanma / B.Nurmuxamedova; -T.: “Iqtisod-Moliya”,2018
www.pedagoglar.org

xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.

Davlat byudjeti balans holati-muayyan davrda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarining bir xil bo'lib qolishi. Byudjet defitsitini dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat moliyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi uning yuzaga kelish sabablarini, mo'tadil darajasini, davlatning makroiqtisodiy tartibga solish tizimidagi o'rnini ilmiy asosda o'rganish zaruriyatini yuzaga keltirgan. J.M.Keyns davlat byudjeti defitsitining yuzaga kelish sabablarini chuqur tadqiq qilgan iqtisodchi olimlardan biri hisoblanadi. J.Keyns o'zining ilmiy izlanishlarida jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlarida davlat xarajatlarining davlat daromadlariga nisbatan ortiqcha bo'lishi mumkinligini va bu holat obektiv iqtisodiy asosga ega ekanligini asoslab bergan. Keynsning byudjet-soliq siyosati xususidagi nazariy qarashlarida byudjet defitsiti iqtisodiyotni bir muvozanat holatidan ikkinchi bir muvozanat holatiga o'tkazish imkonini beruvchi instrument sifatida e'tirof etilgan. Asosan, hozirgi kunda deyarli barcha davlatlarning byudjet holatida byudjet defitsiti qayd etiladi.

Byudjet defitsitining hajmi:

- ✓ milliy valyutada absolyut summada;
- ✓ mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan foizlarda;
- ✓ milliy daromad hajmiga nisbatan foizlarda;
- ✓ byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Taqchilikning kelib chiqishi sabablariga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- ✓ Iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida davlat byudjeti xisobidan kapital qo'yilmalar hajmining oshib ketishi;
- ✓ Favqulodda xolatlari-urushlar, davomiy ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar;
- ✓ YaIM o'sish sur'atlarining pasayib ketishi, ishlab chiqarishning izdan chiqishi;
- ✓ Byudjet daromadlari bazasining mustahkam emasligi;

✓ YaIMning o'sish sur'atlariga erishmasdan turib markazlashgan uzoq muddatli investitsiyalarni ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishni mutassil oshirib boorish; Iqtisodiy inqirozlar va boshqalar.


1-jadval

2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari hamda 2024-2025-yillarga byudjet mo'ljallari²(mlrd.so'm)

No	Ko'rsatgichlar	2023-yil uchun prognoz	2024-yil uchun mo'ljal	2025-yil uchun mo'ljal
I.	Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	310677,9	353697,7	397219,4
1.	Davlat byudjeti daromadlari	232107,1	269965,6	309829,9
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari	41250,7	46793,8	50609,2
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar	11712,0	11394,2	9959,0
4.	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar	25608,1	25544,1	26821,3
II.	Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari	343212,6	387197,1	428363,7
1.	Davlat byudjeti xarajatlari	227866,6	255324,1	285570,5
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari	70212,9	77565,2	85342,8
III.	Konsolidatsiyalashgan byudjet saldos (profitsit+, defitsit-)	-32534,7	-33499,4	-31144,3
IV.	Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari saldos (profitsit+, defitsit-)	-24721,7	-16129,9	-10474,2
V.	Davlat qarzlarini so'ndirish	19173,7	31498,8	26657,5

² 2024-2026-yillarga mo'ljallangan byudjetnoma prognozlaridan muallif tomonidan o'zlashtirilgan.

Yuqoridagi keltirilgan jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, 2023-yil prognozi va 2024-yil hamda 2025-yillarning mo'ljallari keltirilgan. Asosan 3ta yilda ham davlatning konsolidatsiyalashgan byudjeti taqchillik bilan chiqadi ekan. 2023-yildagi konsolidatsiyalashgan davlat byudjetining taqchilligi 32534.7 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarini ham 24721.7 mlrd.so'm bilan taqchillikda chiqishini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. 2022-yil konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini qoplash manbalari tarkibi

Ushbu rasmda 2022-yilda davlat byudjeti taqchilligi 35229 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, uning asosiy ya'ni 47%ini xalqaro moliya institutlarining qarz mablag'lari va yevro obligatsiyalar chiqarish hisobidan, 16%i davlat aktivlarini xususiylashtirish hisobidan, 18%i davlat g'azna obligatsiyalari hisobidan, 13%i davlat dasturlarini ijrosi uchun jalb qilingan qarz mablag'lari hisobidan, 6%i bo'lsa yil boshida qoldiq mablag'lari hisobidan qoplangan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi dinamikasi³:mlrd.AQSh doll

№	Ko'rsatgichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1.	Davlat qarzi, Jami	14,9	17,8	23,4	26,3	29,2
2.	YaIMga nisbatan foizda	28,3%	29,7%	39,0%	38,0%	36,4%
3.	Davlat tashqi qarzi	9,9	15,7	21,1	23,6	25,9
4.	YaIMga nisbatan foizda	18,8%	26,2%	35,2%	34,0%	32,25%
5.	Davlat ichki qarzi	5,0	2,1	2,3	2,7	3,3
6.	YaIMga nisbatan foizda	9,5%	3,5%	3,8%	4,0%	4,1%

Yuqoridagi jadvalda davlat qarzi dinamikasini tahlili keltirilgan.

Bu ko'rsatgichlardan shuni ko'rish mumkinki, davlat qarzi 2ga bo'linib, tashqi va ichki qarzlardan tashkil topgan.

Tashqi qarzlarni nisbatan ichki qarzlardan ko'p bo'lib 2022-yilda 25.9 mlrd.AQSh dollni tashkil etgan va ichki qarzlarga nisbatan 8 barobar ko'p. Bir yilda olinadigan davlat qarzi YaIMni 60%izidan oshib ketmasligi kerak.

Oshib ketsa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shuning uchun Vazirlar Mahkamasi doimiy ravishda davlatning qarzlarini nazorat qilib turadi.

Taqchillikni boshqarish va tartibga solish quyidagilardan iborat:

- ✓ Taqchillikni moliyalashtirish manbalarini izlab topish va jalb qilish;

³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisod va Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

✓ Taqchillik darajasining jahon amaliyotida yo‘l qo‘yilgan me‘yorlaridan oshib ketishining oldini olish;

✓ Taqchillikni moliyalashtirish manbalari o‘rtasida oqilona mutanosiblikni saqlash.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, asosan hozirgi kundagi barcha mamlakatlar iqtisodiyotida davlat byudjetining holati defitsitda bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetini holati ham ko‘p yillardan buyon defitsitda chiqmoqda.

Davlat byudjetining YaIMga nisbatan 3-3.5%da bo‘lishi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun normal holat hisoblanadi.

Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish usullaridan biri mamlakat hukumati tomonidan aholidan, milliy xo‘jalik yurituvchi subektlardan, xorijiy davlatlar hukumatlaridan, xalqaro moliya tashkilotlaridan va yirik tijorat banklaridan qarz olish hisoblanadi.

Lekin defitsit faqat qarzlarni hisobidan yopiladigan bo‘lsa har xil oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki olingan qarzlarni byudjetni defitsitiga sarflanadigan bo‘lsa ular bekorga ketishi mumkin. Biroq olingan qarzlarni ishlab chiqarish uchun yoki qaysidir sohaga investitsiyalar kiritiladigan bo‘lsa kelajakda foyda olib kelishi mumkin.

Davlat byudjetining holati iqtisodiyot va hukumatning xizmat ko‘rsatishi va moliyaviy majburiyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018

2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.

3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).